

5/2025,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00079)



YASHIL TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN SANOAT KORXONALARIGA INVESTITSİYALARNI SAMARALI JALB QILISH YO‘LLARI

Otaboyev Umrbek Umidbek o‘g‘li

Xalqaro Nordik universiteti asissenti

Email: u.otaboyev@nordicuniversity.org

ORCID: 0009-0008-7269-9451

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/715

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan investitsiya oqimlari tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirishga yo‘naltirilgan loyihalarga qaratiladi. Tadqiqotda milliy va xalqaro tajribalar asosida investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlari aniqlanadi hamda investitsiya oqimlarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalari baholanadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yashil moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish orqali sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Natijalar asosida investitsiya faoliyatini yanada samarali jalb qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, investitsiya oqimlari, sanoat korxonalari, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, ekologik samaradorlik, raqobatbardoshlik, moliyaviy mexanizmlar, xalqaro tajriba.

WAYS TO EFFECTIVELY ATTRACT INVESTMENTS INTO INDUSTRIAL ENTERPRISES BASED ON GREEN TECHNOLOGIES

Otaboev Umrbek Umidbek ugli

Assistant Nordic International University

Annotation

This study analyzes investment flows aimed at ensuring a balance between environmental sustainability and economic efficiency. The main focus is placed on projects directed at modernizing production processes in industrial enterprises, improving energy efficiency, ensuring the rational use of resources, and reducing negative impacts on the environment. Based on national and international experiences, the study identifies priority directions of investment policy and evaluates the economic, social, and environmental outcomes of investment flows. Furthermore, it explores the opportunities to enhance competitiveness in industrial sectors through the implementation of innovative technologies and the use of green financing mechanisms. Based on the results, recommendations are developed to make investment activities more efficient and sustainable.

Keywords: green economy, investment flows, industrial enterprises, sustainable development, energy efficiency, innovative technologies, environmental performance, competitiveness, financial mechanisms, international experience.

ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В ПРОМЫШЛЕННЫЕ ПРЕДПРИЯТИЯ, ОСНОВАННЫЕ НА ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЯХ

Отабоев Умрбек Умидбек оглы

Ассистент Международного Университет Нордик

Аннотация

В данном исследовании анализируются инвестиционные потоки, направленные на обеспечение баланса между экологической устойчивостью и экономической эффективностью. Основное внимание уделено проектам, направленным на модернизацию производственных процессов на промышленных предприятиях, повышение энергоэффективности, рациональное использование ресурсов и снижение негативного воздействия на окружающую среду. На основе национального и международного опыта определяются приоритетные направления инвестиционной политики и оцениваются экономические, социальные и экологические результаты инвестиционных потоков. Кроме того, рассматриваются возможности повышения конкурентоспособности в промышленных отраслях за счёт внедрения инновационных технологий и использования механизмов «зелёного» финансирования. По результатам исследования разрабатываются предложения по повышению эффективности инвестиционной деятельности.

Ключевые слова: зелёная экономика, инвестиционные потоки, промышленные предприятия, устойчивое развитие, энергоэффективность, инновационные технологии, экологическая эффективность, конкурентоспособность, финансовые механизмы, международный опыт.

Kirish

So‘nggi yillarda global miqyosda barqaror rivojlanish tamoyillari, ekologik xavfsizlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalari jahon iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning dolzarbligi ekologik toza ishlab chiqarish, energiya samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta‘minlashga qaratilgan investitsiyaviy siyosatni shakllantirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – sanoat korxonalariga yo‘naltirilayotgan investitsiya oqimlarini ekologik va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan baholashdir. Vazifalar esa energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish, resurslardan qayta foydalanish mexanizmlarini aniqlash hamda xalqaro tajribani milliy amaliyotga tatbiq qilishdan iboratdir. Predmet sifatida sanoat korxonalariga yo‘naltirilgan investitsiya oqimlari va ularning samaradorligi ko‘rib chiqilsa, asosiy muammo sifatida esa investitsiyalarning ekologik mezonlarga to‘liq mos kelmasligi hamda moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmagani ta‘kidlab o‘tiladi.

Tadqiqotda metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil, xalqaro solishtirma usul va ekologik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘lchash instrumentlari qo‘llanilgan. Shuningdek, investitsiya oqimlarining samaradorligini baholashda ishlab chiqarish xarajatlari, energiya tejamkorlik ko‘rsatkichlari, korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasi hamda ekologik talablarni bajarish natijalari hisobga olingan. Milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy adabiyotlar,

xalqaro tashkilotlarning statistik ma’lumotlari, shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiy strategik hujjatlari tahlil jarayonining manbalari sifatida xizmat qilgan.

“O‘zbekiston –2030 strategiyasi”da mamlakatning barcha sohalarini barqaror rivojlantirish, yashil iqtisodiyot va unga keng investitsiyalar jalb qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Aynan shu strategiya asosida, sanoat korxonalariga keng investitsiyalar jalb qilish zarurati yuzaga kelgan [10].

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalariga yo‘naltirilgan investitsiya oqimlarini ekologik mezonlar asosida baholash ularning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik samaradorligini ham ta’minlaydi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, “yashil” moliyalashtirish vositalaridan foydalanish va xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin. Shu bilan birga, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, soliq va kredit imtiyozlari orqali investorlarni rag‘batlantirish zaruriyati ham asosiy yechimlar sifatida ta’kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili

Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarni o‘rganish orqali “yashil investitsiya”, “atrof-muhit reglamenti”, “firmalarning ekologik innovatsiyalari” kabi tushunchalarning sanoat korxonalarini kontekstida qanday tahlil qilingani ko‘riladi.

Mahalliy olimlardan, F. Umarovning tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun keng qamrovli siyosat va huquqiy baza zarurligi ta’kidlangan. Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish investitsiya samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan [1].

G. Ubaydullayevaning tadqiqotlarida O‘zbekiston hukumati tomonidan xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyozlar, xalqaro hamkorlik, “yashil diplomatiya” strategiyalari orqali mamlakatda yashil sanoat infratuzilmasi shakllanayotganligi qayd etilgan [2].

Bundan tashqari, E. Umarov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida, yashil texnologiyalarga asoslangan kichik va o‘rta sanoat korxonalariga keng investitsiya jalb qilishda davlat tomonidan belgilanadigan soliq normalarining ham ahamiyati katta hisoblanishi ilgari surilgan. Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarini soliqlarining bir qismi mintaqaviy budjetga, bir qismi mahalliy budjetlarga, qolgan qismi esa markazga tushadi. Soliqlarning 30 foizini mintaqaga berish va 70 foizini joyida qoldirish taklif etiladi. Bu o‘z navbatida korxonalarda investitsion muhitni yaxshilaydi degan xulosaga kelingan [3].

Shuningdek, tadqiqot davomida bir qancha xorijiy manbalarga ham murojaat etildi. Xususan, Wang, Sun va boshqalar “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot” tashkilotiga a’zo mamlakatlardagi sanoat tarmoqlariga oid ma’lumotlar yordamida ekologik reglamentlar va yashil produktivlik o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganganlarini keltirish mumkin. Ular ma’lum darajadagi ekologik reglamentlar innovatsiyalarning rag‘batlantirishi va samaradorlikni oshirishi mumkin, biroq reglamentlar haddan tashqari qat’iy bo‘lganda umumiy xarajatlari innovatsiyalar samarasi ustidan kelib chiqqan salbiy ta’sir ko‘rsatishi muqarrarligini o‘rgandilar [4].

Kalantzis va boshqalar firmalarning yashil investitsiyalarga bo‘lgan strategiyalarini tahlili natijalari o‘laroq shuni aniqladilarki, yaxshi boshqaruv amaliyotlariga ega firmalar ham kapital-intensiv, ham kapitalli bo‘lmagan yashil tadbirlarini ko‘proq joriy qiladi, lekin moliyaviy cheklovlarga duch kelgan firmalarda bu faollik sezilarli darajada kamayadi. Bundan

tashqari, firmalarning ekologik investitsiya qo‘yilishining turi firmalarning moliyaviy barqarorligi va boshqaruv ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq [5].

Bundan tashqari, Y. Zhang Xitoyda ro‘yxatga olingan kompaniyalarning 2012–2022 yillardagi ma‘lumotlari asosida yashil investitsiyalar va korporativ yashil innovatsiyalarning o‘zaro aloqasini o‘rgangan. Yashil investitsiyalar xususiy korxonalarda sezilarli ravishda innovatsiyalarni rag‘batlantirishi, davlat korxonalarini uchun bu ta‘sir kamroq yoki statistik jihatdan sezilarli emasligi, raqobat yuqori bo‘lgan sanoatlar bu ta‘sirni kuchaytirishini ta‘kidlashgan [6].


Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar tomonidan aynan yashil texnologiyalarga asoslangan sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilish yuzasidan alohida o‘rganishlar amalga oshirilmagan. Shu sababli, sanoat korxonalariga yo‘naltirilayotgan investitsiya oqimlarini ekologik va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan baholash bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Metodologiya

Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarni uyg‘unlashtirgan tizimli yondashuvga asoslanadi. Asosiy maqsad — sanoat korxonalariga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalarni yashil texnologiyalar nuqtai nazaridan tahlil qilish va ularni samarali jalb etish yo‘llarini aniqlashdir. Ishda tizimli va solishtirma tahlil, statistik hamda ekologik-iqtisodiy baholash usullari qo‘llanilgan. 2017–2022 yillar statistik ma‘lumotlari asosida investitsiya oqimlarining hajmi, dinamikasi va samaradorligi o‘rganilgan. Shuningdek, ekspert tahlili orqali yashil moliyalashtirish mexanizmlarining amaliy samaradorligi baholangan. Tadqiqot “O‘zbekiston–2030” strategiyasi va BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga tayangan holda, investitsiyalarni ekologik barqaror yo‘nalishlarda samarali jalb etish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda sanoat tarmoqlarida ekologik-investitsion siyosatning iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki ishlab chiqarishning kengayishi, energiya iste‘moli va chiqindilar hajmining ortishi iqtisodiy o‘sish bilan birga ekologik xavflarni ham yuzaga keltiradi. Shu sharoitda korxonalarni modernizatsiya qilish, “yashil” texnologiyalarni joriy etish va ekologik talablarni hisobga olgan holda investitsiya siyosatini shakllantirish nafaqat barqaror rivojlanish, balki uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ham ta‘minlaydi.



1-rasm. Sanoat tarmoqlarida ekologik-investitsion siyosatning iqtisodiy samaradorligi. [1]

Mazkur ierarxik matritsa sanoat tarmoqlarida ekologik-investitsion siyosatning iqtisodiy samaradorligini kompleks tarzda yoritib bermoqda. Diagramma uchta asosiy blokka bo'lingan bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liq holda iqtisodiy natijalarni shakllantiradi. Birinchi blok – “Ijobiy iqtisodiy natijalar” – ishlab chiqarish samaradorligi oshishini, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatlarini va novatorlik faoliyatining rivojlanishini o'z ichiga oladi. Bu jihatlar investitsiya oqimlari natijasida korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlari yanada samarali bo'lishini, resurslardan foydalanish optimallashtirishini va yangi texnologiyalarning keng joriy qilinishini ta'minlaydi. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash korxonalariga qo'shimcha daromad manbai yaratish va resurslar zanjirida yopiq sikl hosil qilish imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarish xarajatlari qisqarib, raqobatbardoshlik kuchayadi. Novatorlik faoliyatining rivojlanishi esa uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchi va uchinchi bloklar – “Ekologik-samaradorlikning iqtisodiy foydalari” va “Moliyaviy ta'siri” – ushbu siyosatning keng ko'lamli natijalarini ochib beradi. Ekologik samaradorlik doirasida energiya xarajatlarining kamayishi, atrof-muhitni tozalash xarajatlarining pasayishi va ekologik soliqlar hamda imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Bu jarayonlar sanoat korxonalariga moliyaviy jihatdan sezilarli tejash imkonini berib, resurslardan oqilona foydalanishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan beriladigan ekologik imtiyozlar korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi va xususiy sektorni faolroq bo'lishga undaydi.

Moliyaviy ta'sirlar esa, ekologik soliqlar va imtiyozlar bilan bir qatorda risklar va xarajatlar boshqaruvini o'z ichiga oladi. Ya'ni, korxonalar o'z faoliyatida ekologik risklarni kamaytirish orqali kutilmagan xarajatlardan saqlanadi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu tarzda ushbu matritsa ekologik-investitsion siyosatning nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy va ekologik ustuvorliklarni ham uyg'unlashtiruvchi mexanizm sifatida qanchalik dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi
(mlrd.so‘m) [9]

| Klassifikator | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi | 189,8 | 623,5 | 5496,2 | 6739,9 | 7659,4 | 5067 |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 9735,5 | 7452 | 15112,2 | 15313,7 | 13781,3 | 13044,9 |
| Ishlab chiqarish sanoati | 2533,5 | 6003,9 | 28125,2 | 38845,5 | 36283,1 | 45376,7 |
| Qurilish | 12,1 | 91,4 | 3575,2 | 4100,6 | 5744 | 5336,3 |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish | 7,1 | 23,9 | 134,1 | 451,7 | 251 | 201,3 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoini konditsiyalash | 277,4 | 855,7 | 1138,6 | 988,2 | 1615,4 | 2547,8 |
| Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish | 1490 | 430 | 1351,2 | 1765,4 | 2121,5 | 1505,8 |
| Axborot va aloqa | 2,2 | 5,8 | 8,2 | 38,4 | 479 | 1182,5 |
| Moliyaviy va sug‘urta faoliyati | 1463,8 | 1654 | 3615,8 | 3192,5 | 6996,5 | 7135,1 |
| Tashish va saqlash | 23,7 | 8,2 | 1489,6 | 844,4 | 2301,9 | 537,4 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 68,4 | 615,2 | 2649,6 | 4223,8 | 3520,1 | 3010,7 |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash | 174,4 | 167,9 | 665,2 | 2063,2 | 975 | 5331,2 |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar | 141,2 | 32 | 39,9 | 286,4 | 331 | 472,6 |
| Ta‘lim | 515,4 | 234,6 | 1855,8 | 1823,1 | 2681,9 | 3406 |

Ushbu jadvalda 2017–2022-yillar davomida O‘zbekiston iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi dinamikasi keltirilgan. Ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, investitsiyalarning eng katta ulushi ishlab chiqarish va tog‘-kon sanoatiga to‘g‘ri kelgan. Xususan, ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yildagi 2533,5 mlrd so‘mdan 2022-yilda 45376,7 mlrd so‘mgacha oshgan bo‘lib, bu tarmoqda texnologik modernizatsiya va ekologik samaradorlikni oshirish uchun katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi.

Tog‘-kon sanoatida ham investitsiyalar sezilarli darajada yuqori, ya‘ni, 2017-yilda 9735,5 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 13044,9 mlrd so‘mga yetgan. Biroq bu sohada “yashil texnologiyalar”ni tatbiq etish sust kechmoqda, chunki konchilik va qazib olish

ishlari ko'p hollarda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ekologik toza uskunalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bu sohadagi barqaror rivojlanishning muhim omiliga aylanadi.

Shuningdek, qurilish va elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash sohaslarida ham investitsiyalar o'sishi kuzatilgan. Bu sohalarda energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan “yashil” loyihalar muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, O'zbekistonda xorijiy kapital oqimi sanoat tarmoqlarida sezilarli bo'lsa-da, bu mablag'larni yashil texnologiyalarga yo'naltirish ekologik xavfsiz ishlab chiqarish, energiya tejankor texnologiyalar va chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi.

2-jadval

Sanoat tarmoqlarida ekologik-investitsion siyosatning iqtisodiy samaradorligi tahlili [5]

| Yo'nalish | Asosiy chora-tadbirlar | Qisqa muddatli natijalar | Uzoq muddatli natijalar | Strategik ahamiyati |
|-------------------------------|--|---|--|---|
| Iqtisodiy samaradorlik | <ul style="list-style-type: none"> - energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish; - resurslardan qayta foydalanish; - innovatsion ishlab chiqarish jarayonlari | <ul style="list-style-type: none"> - investitsiya xarajatlarining oshishi; - ishlab chiqarish xarajatlarining qisqa muddatli ko'payishi | <ul style="list-style-type: none"> - xarajatlarning kamayishi; - mahsulot tannarxining pasayishi; - eksport salohiyatining oshishi | Raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va xalqaro bozorda o'rinni mustahkamlaydi |
| Ijtimoiy samaradorlik | <ul style="list-style-type: none"> - atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlari; - ishchi xavfsizligi va sog'lom mehnat sharoitlari; - mahalliy aholiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalar | <ul style="list-style-type: none"> -qisqa muddatda qo'shimcha tashkiliy xarajatlar; - kadrlarni qayta tayyorlash zarurati | <ul style="list-style-type: none"> - sog'lom mehnat resurslari; - ishchi unumdorligining ortishi; - ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligi | Sog'lom ishchi kuchi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi |
| Ekologik samaradorlik | <ul style="list-style-type: none"> - chiqindilarni qayta ishlash; - atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytirish; - suv va energiya resurslarini | <ul style="list-style-type: none"> -yangi texnologiyalarni joriy etish xarajatlari; - ekologik nazorat talablarining kuchayishi | <ul style="list-style-type: none"> - atrof-muhit ifloslanishining kamayishi; - resurslardan uzoq muddatli foydalanish imkoniyati; | Barqaror rivojlanishni ta'minlaydi va xalqaro ekologik majburiyatlarni bajarishga xizmat qiladi |

| | | | | |
|------------------------------|--|---|--|--|
| | oqilona boshqarish | | - global ekologik standartlarga moslashish | |
| Moliyaviy mexanizmlar | - yashil obligatsiyalar; - soliq va kredit imtiyozlari; - davlat-xususiy sheriklik | - moliyalashtirish manbalarini safarbar qilish; - qisqa muddatli moliyaviy risklarning ortishi | - investorlar uchun barqaror daromad; - moliyaviy bozorlarning rivojlanishi; - yangi investitsiyalar oqimini jalb qilish | Ekologik-investitsion siyosatni iqtisodiy mexanizmlar bilan mustahkamlaydi |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ekologik-investitsion siyosatning samaradorligi qisqa muddatda ayrim moliyaviy va tashkiliy xarajatlarni oshirsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish dastlab korxonalariga qo‘shimcha investitsiya yukini keltirib chiqarsa ham, keyinchalik tannarxni kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, moliyaviy mexanizmlar - xususan, yashil obligatsiyalar va soliq imtiyozlari - korxonalariga investitsiya oqimlarini safarbar qilishda muhim rol o‘ynaydi va barqaror moliyaviy tizim shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa

Umumiy tahlillardan ko‘rinib turibdiki, sanoat tarmoqlarida ekologik-investitsion siyosat qisqa muddatda qo‘shimcha xarajatlar va tashkiliy o‘zgarishlarni talab qilsa-da, uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o‘shish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish va moliyaviy mexanizmlarni safarbar qilish orqali korxonalar tannarxni kamaytiradi, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi va xalqaro bozorda o‘z pozitsiyasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, davlat tomonidan yaratilayotgan soliq va kredit imtiyozlari, yashil obligatsiyalar va xususiy sektor bilan hamkorlik siyosatni yanada samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ekologik-investitsion siyosatning ijtimoiy va ekologik natijalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchining salomatligini saqlash, xavfsiz mehnat sharoitlari yaratish va atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish natijasida nafaqat ishlab chiqarish samaradorligi, balki jamiyat farovonligi ham oshadi. Ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish korxonalarini global bozordagi “yashil” talablar bilan uyg‘unlashtiradi, bu esa uzoq muddatda mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimdagi mavqeini mustahkamlashga olib keladi. Shu asosda aytish mumkinki, ekologik-investitsion siyosat sanoat tarmoqlari uchun nafaqat ekologik majburiyat, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi strategik yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Umarov, F. U. (2025). Yashil iqtisodiyotda investitsiya samaradorligini oshirish: barqaror o‘shirish strategiyasi va imkoniyatlari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 3(2).
2. Ubaydullayeva, G. (2025). Korxonalarni yashil texnologiyalar asosida rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o‘rni. *Академические исследования в современной науке*, 4(29), 19-21.
3. Umarov, E. (2024). Sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning quyi tizimini rivojlantirish ahamiyati. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 13, 22–25. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1011>
4. S. X. G. X. Wang Y., «Environmental regulation and green productivity growth: Empirical evidence on the Porter Hypothesis from OECD industrial sectors,» *Energy Policy*, т. 32, pp. 611-619, 2019.
5. S. H. D. S. Kalantzis F., «Green Investment by Firms: Finance or Climate Driven?,» *European Bank for Reconstruction and Development*, т. 228, 2022.
6. S. S. L. Y. Zhang Y., «Do green investments impact corporate green innovation? empirical evidence from Chinese-listed companies,» *Frontiers in Environmental Science*, т. 12, p. 1468843, 2024.
7. J. L. E. García-Quevedo J., «Environmental policies and energy efficiency investments. An industry-level analysis,» *Energy Policy*, т. 156, p. 112461, 2021.
8. F. Y., «Study on the effect of the environmental protection industry and investment for the national economy: An input-output perspective,» *Journal of Cleaner Production*, т. 227, pp. 1093-1106, 2019.
9. O‘zbekiston Respublikasining statistika portal - <https://siat.stat.uz>
10. <https://lex.uz/docs/-6600413> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.